



# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil  
MAXSUS SON

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

- 5 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**  
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi: zarurat va istiqbollar
- 11 **AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**  
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 **HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**  
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 **AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**  
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 **SAFAROV DJAXONGIR ISMOLOVICH**  
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari
- 37 **ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**  
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi tushunchasining yuridik tahlili
- 43 **JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LII**  
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti sifatida ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 **TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**  
Intellektual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy himoyasi va uning ahamiyati
- 57 **YULDOSHBECOV AVAZBEK ALISHER O'G'LII**  
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy burchlarini ta'minlashda soliq maslahati institutining o'rni va ahamiyati
- 63 **XAYITOV PANJI BUخارOVICH**  
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

**70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**

Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

**75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**

Advokatlar maqomi e'tibor markazida

**79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**

The new constitution of Uzbekistan:  
A catalyst for democratic advancement

UDC: 342:339.137(045)(575.1)

# HALOL RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA MONOPOL FAOLIYATNI CHEKLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Davlatova Guliza Shavkat qizi,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
tayanch doktoranti  
ORCID: 0009-0003-7496-7628  
e-mail: gprimova97@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga iqtisodiy faoliyatni rivojlanterish maqsadida davlat tomonidan halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratilishi, insofsiz raqobatga yo'l qo'yilmasligi, ya'ni monopoliya cheklanishi haqidagi o'zgartirishlar aks etgan normalar hamda ularning iqtisodiy va huquqiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kiritilgan yangi normalar orqali davlat o'z zimmasiga olgan tadbirkorlikni rivojlanterish uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** halol raqobat, insofsiz raqobat, monopoliya, soliq, tadbirkorlik, soliq imtiyozlari.

## КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДОБРОСОВЕСТНОЙ КОНКУРЕНЦИИ И ОГРАНИЧЕНИЯ МОНОПОЛИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Давлатова Гулиза Шавкат кизи,  
базовый докторант Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной статье анализируются нормы, отражённые в новой Конституции нашей страны, которые направлены на создание условий для добросовестной конкуренции, запрет недобросовестной конкуренции и ограничение монополии, и их экономико-правовое значение в целях развития экономической деятельности. Освещены возможности, создаваемые государством для развития предпринимательства посредством новых норм.

**Ключевые слова:** добросовестная конкуренция, недобросовестная конкуренция, монополия, налог, предпринимательство, налоговые льготы.

## CONSTITUTIONAL AND LEGAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF FAIR COMPETITION AND RESTRICTIONS ON MONOPOLISTIC ACTIVITIES

Davlatova Guliza Shavkat kizi,  
PhD student  
of Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article analyzes the norms and their economic and legal significance, reflected in the amendments to our new Constitution, which fix the creation of conditions for fair competition, the prohibition of unfair competition, that is, the restriction of monopoly, in order to develop economic activity. The opportunities created by the state for the development of entrepreneurship through new norms are also emphasized.

**Keywords:** Fair competition, unfair competition, monopoly, tax, entrepreneurship, tax benefits

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar huquqlari qonun hujjatlari da mustahkamlanib, bozor munosabatlari va raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning nezgisi mamlakatimiz bosh qomusi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi XII bobi "Jamiyatning iqtisodiy negizlari", deb nomlanib, unda O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga tayanishi hamda iqtisodiyotning aniq negizlari belgilab qo'yilgan.

Jumladan, ushbu bobning 65-moddasi 1-qismi quyidagicha bayon qilingan: "Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi".

Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning Konstitutsiyada mustahkamlanishi mamlakatimiz aholisi farovonligi va iqtisodiyotining rivojlanishi yo'lidagi juda katta ijobiy o'zgarish hisoblanadi.

2023-yil 3-iyulda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'-risida"gi Qonuni ham qabul qilinib, ushbu qonunning maqsadi tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishi, shuningdek, raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlari da iste'molchilar huquqlari va qonuniy manfaatlari kamshitishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo'yish bilan bog'liq bo'lgan raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat [1].

Shu o'rinda "raqobat" tushunchasiga biroz ta'rif berib o'tishimiz lozim.

**Raqobat** – xo'jalik yurituvchi subyektlar (raqobatchilar) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumi shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'r-satish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi [2].

Tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri – bu **insofsiz raqobat** bo'lib, ushbu tushunchaning ma'nosи xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishiga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar (raqobatchilar)ga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlarini anglatadi [3].

Insofsiz raqobatni taqiqlash "Raqobat to'g'-risida"gi Qonunda ham belgilab qo'yilgan bo'lib, ushbu qonunning 21-moddasiga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki ularning manfaatlарini ko'zlab, boshqa shaxslar tomonidan raqobatchilarga nisbatan insofsiz raqobatni amalga oshirish taqilnadi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bir qator huquqiy imkoniyatlar yaratildi. Bunda davlat o'z zimmasiga qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish, bozor munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha majburiyatlar olgan.

Bundan tashqari, mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Mu-rojaatnomasida erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi [4].

Ushbu dolzARB masalalarning yangi Konsitutsiyamiz orqali mustahkamlab qo'yilishi bu boradagi barcha to'siq va cheklowlarni bartaraf qiladi hamda kelajakda milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun erkinlik beradi.

Bugungi kunda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Shu munosabat bilan iqtisodiy xulq-atvorning oqilona vositasi – bu sog'lom raqobat muhitini yaratish, moddiy ne'matlarni adolatli taqsimlash, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish, xususiy mulk munosabatlarini qonunlar orqali mustahkamlashdir.

Ammo amalda shunday muammo borki, raqobat o'z-o'zini zarur darajada tartibga sola olmaydi. Binobarin, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ularning amaliyotini tahlil qilish asosida davlatning ijtimoiy vazifalarini bajarish, jamiyatda adolatli soliq siyosatini yuritish, qulay sarmoyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish muhimdir.

Respublikamiz hududiga tovarlar, xizmatlar, mehnat va moliya resurslarini yetkazib berish faqat tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlash orqali raqobat sharoitlarini yaxshilash uchun mavjud iqtisodiy munosabatlarni maxsus qonunlar bilan tartibga solishni taqozo etadi. Davlat raqobat muhitini o'z vaqtida ta'minlamasa, tadbirkorlarning olg'a siljishi, yirik biznes loyihalarini ishlab chiqish va amalga kiritish imkoniyatlari cheklanib qoladi.

Shu tariqa davlat raqobat muhitini ta'minlab, tadbirkorlik subyektlari huquqlarini kafolatlaydi va qonunchilikni takomillashtiradi. Buning natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z manfaatlarini to'la namoyon etishi, yaxshi daromad olishi, o'z mavqeyini mustahkamlashi va qobiliyatini namoyon etishi uchun sharoitlar yaratilmoqda.

Shuni hisobga olib, yurtimizda konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish jarayonida raqobat muhitini ta'minlash, monopolistik

faoliyatni cheklash, tadbirkorlikni rag'batlantirish, ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, xususiy mulk egalarining huquqlarini har tomonlama kafolatlashga xizmat qiluvchi normalar joriy etilmoqda. Xususan, Konstitutsiyamizning 67-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishini kafolatlash" normasini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Jahon tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, agar biror mamlakatda monopolistik faoliyat huquqiy tartibga solinsa, sog'lom raqobat tamoyillariga rioya qilinadi; davlat tomonidan qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaratiladi; tovarlar, xizmatlar, mehnat va moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishi davlat tomonidan ta'minlanadi. Chunki jahon bozorida raqobat kuchayib bormoqda. Bu vaziyatda davlat va uning vakolatli organlari erkin bozor mexanizmlarini joriy etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirmasa, mamlakat taraqqiyoti barqarorligi va mamlakat farovonligiga jiddiy zarar yetishi mumkin.

Shuning uchun ham mamlakatimiz Konsitutsiyasida davlatning iqtisodiy jarayonlarni boshqarishdagi konstitutsiyaviy vazifa va funksiyalarini aniq belgilab berish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasida pandemianing salbiy oqibatlari, geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi va davom etayotgan globallashuv jarayonlarining kuchayishiga qaramay, makroiqtisodiy ko'rsatichlar barqaror o'sib bormoqda. Bularning asosiy sababi iqtisodiy muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvning yo'lga qo'yilgani, hududlarni rivojlantirish maqsadida qaratilayotgan e'tibordir.

Ammo mamlakatimizdagi raqobat muhitining holati, tadbirkorlik faoliyatini yuritishdagi ayrim ma'muriy to'siqlar, yuqori bojxona tariflari va soliq yukining notekis taqsim-

lanishi mamlakatimizning mavjud iqtisodiy salohiyatidan foydalanish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish imkonini bermaydi. Binobarin, Konstitutsiyamizda mamlakatimizning barcha hududlarida tovarlar, xizmatlar, mehnat va moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishi uchun shart-sharoit yaratish kafolati belgilangan.

Shu jihatni inobatga olgan holda, tovar va xizmatlar bozoridagi barcha ishtirokchilar uchun teng huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadida Konstitutsiyamizda monopolistik faoliyatni tartibga solish va cheklashning kuchaytirilishi kiritilgan muhim o'zgarishlardan biridir. Tovar va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich qisqartirish, unumli raqobat muhitini yaratish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va erkinlashtirishning bugungi kundagi ustuvor yo'nalishlaridan.

Konstitutsiya iqtisodiy erkinlikni e'tirof etish va uning uchun barcha sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda, tadbirkorlarning monopolistik faoliyat yuritishi yoki iqtisodiy erkinlikni suiiste'mol qilish orqali bir-biri bilan insofsiz raqobat qilishini taqiqlovchi qodalarni ham belgilab olishi kerak edi. Bu norma yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilandi. Unga ko'ra:

"Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi.

Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirish va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi" [5].

Harakatlar strategiyasi va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar tufayli keyingi yillarda O'zbekistonda erkin va teng raqobat uchun shart-sharoit yaratildi. Tadbirkorlik

subyektlari uchun soliq yuki kamaytirildi, jumladan, mol-mulk solig'i, daromad solig'i va ijtimoiy soliq stavkalari ikki barobarga, qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizdan 15 foizga, soliq to'lovlarini ixtiyoriy bajarish stavkasi kamaytirildi. Shuningdek, halol raqobat tamoyillari hayotga tatbiq etilishini ta'minlash uchun 84 turdag'i samarasiz soliq imtiyozlari bekor qilindi.

Konstitutsiyada belgilangan mazkur norma raqobatni ta'minlash va monopolistik faoliyatga qarshi kurashish orqali davlat tomonidan tovar va xizmatlar bozorining barcha ishtirokchilariga teng iqtisodiy va huquqiy imkoniyatlar yaratadi. "Yangi O'zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar mamlakati" g'oyasiga asoslangan taraqqiyot strategiyasida ochiq tanlov asosida 200 ta eksportyorni tanlab olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yetakchi eksportyorga aylantirish vazifalari belgilangan.

Konstitutsiyamizga kiritilgan ushbu modalar samarali faoliyat olib boruvchi bozorlar va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish orqali iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalar ni rag'batlantirish, investitsiyalar oqimini ko'paytirish hamda yangi ish o'rinnari yaratish, xalqaro iqtisodiy indeks va reytinglarda o'z o'rnnini yaxshilashga yordam beradi.

Monopol faoliyatni cheklash to'g'risidagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan norma halol mehnat qilib daromad topib kelgan, o'z oila a'zolari va boshqa fuqarolarni ish bilan ta'minlagan, o'z mablag'i hisobidan faoliyat yuritib, insofsiz raqobatni boshdan kechirgan, monopol korxonalar tomonidan ko'plab to'siqlarga uchragan tadbirkorlar uchun juda katta xushxabar bo'ldi. Bu norma tadbirkorlar oldidagi ko'plab to'siqlar olib tashlanishi, iqtisodiy faoliyatda monopoliya va insofsiz raqobatga yo'l qo'yilmasligini anglatadi.

Xorij tajribasidan ma'lumki, Qozog'iston, Bolgariya, Gruziya, Vengriya, Jazoir kabi davlatlar Konstitutsiyasida shu ma'nodagi modalar belgilab qo'yilgan. Tadbirkorlarimiz

insofsiz raqobat va monopoliya bozordagi ko'plab tengsizliklarga olib kelishini yaxshi tushunishadi. Bu narx-navoning asossiz oshib ketishiga olib keladi.

Shu jihatdan yangi tahrirdagi Konstitutsiya ga kiritilgan ushbu normalar ko'plab tadbirdorlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochishi, shubhasizdir. Chunki insofsiz raqobat, ya'ni monopoliashtirishning cheklanishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida gi muhim omillardan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 58–60 foizi tadbirdorlik

subyektlari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Ularda jami iqtisodiy faol aholining 78-82 foizi mehnat qiladi. Bu, albatta, quvonarli holat.

Ishonchimiz komilki, mamlakatimizda munosib investitsiya muhitini yaratish va monopolashuvga yo'l qo'ymaslik, bu boradagi asosiy me'yorlarning bevosita Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilishi iqtisodiy va sarmoyaviy muhitni yanada yaxshilash, eksport salohiyatini mustahkamlash, o'zimizni rivojlantirishimiz uchun mustahkam zamin yaratadi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <http://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2023-y., 03/23/850/0439-son. <http://lex.uz>
3. Adham Shodmonov. "Insofsiz raqobat va monopoliashtirishga yo'l qo'yilmaydi". Yangi O'zbekiston, 2023-yil 9-iyun.
4. <https://daryo.uz/2022/12/31/erkin-bozor-soglon-raqobat-va-xususiy-mulk-konstitutsiyada-tadbirkorlikni-qollab-quvvatlash-masalasi-mustahkamlanadi>
5. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/konstitutsiyaviy-islohotlar/6422-monopol-faoliyatni-cheplash-konstitutsiya-bilan-mustahkamlamoqda.html>

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasiga bag‘ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Sharqli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.